

YALMOG'IZ KAMPIR

Ertak

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim-qadim zamonda bir yalmog'iz kampir bo'lgan ekan. U juda beshafqat ekan. Har oy yangilanib o'roq shaklini olganida tog'dan tushib kelar, qishloqdan bir bolani olib qaytarkan. Qishloq ahli yalmog'izga bas kela olmaymiz, deya uning shartlariga ko'nib yashashdan boshqa chora topisha olmas ekan. Kunlar shu taxlit o'tib, navbat cho'ponning qiziga etibdi. Har oy boshida bo'lganidek, qishloq ahli yana motamsaro bo'lib qolibdi. Bu yerdagi har bir xonadon farzand dog'ini ko'rganidan cho'ponga achinibdi. Lekin qizcha ularni tinchlantiribdi:

- Xafa bo'lmanglar, men yalmog'iz kampirni al- batta yengaman!

Qizcha yosh bo'lsa-da, juda dono, tadbirli ekan. U zolimlarni ayyorlik bilangina yengish mumkinligini yaxshi anglarkan. Shunga qaramay, qishloq ahli shun- day yovuz yalmog'izni jimitdekkina qiz qanday yengadi, deya ishonishmabdi. Yalmog'iz keladigan kuni qizchanning talabiga ko'ra tog' tagiga biri uzum bilan to'latilgan, biri bo'sh xumni qo'yishibdi, yig'lay-yig'lay qizchani qoldirishibdi.

Ko'p o'tmay qizchanning oldida sochlari yoyilgan, ikkita so'yloq tishi og'zidan turtib chiqqan, kir-chirligidan yanada qo'rqinchli tus olgan yalmog'iz kampir paydo bo'libdi. Ammo qiz o'zini qo'lga olib qo'rqmaslikka tirishibdi. Aqlli cho'pon qizi kurashga tayyorlanish asnosida qo'rquv insonni ojiz qilib qo'yishi mumkinligini tushungan ekan.

- Assalomu alaykum, - debdi qizcha dadil turib yalmog'iz kampirga.

Vaalaykum assalom, gar saloming bo'lmasa ikkiyamlab bir yutardim, - debdi yalmog'iz so'yloq tishlarini ko'rsatib. - Qani, ustimga min, ketdik, - buyuribdi u.

- Momojon, mana shu xumdagi uzumni ham olaylik, sizga shirin ichimlik tayyorlab bermoqchiydim, - debdi qiz.

Shirin ichimlikni eshitib yalmog'iz rozi bo'libdi. U bir yelkasiga uzum to'la xum, biriga esa qizchani ortganicha parvoz qilib, bir zumda tog' orqasidagi qasriga yetibdi. Devorlari turli jonivorlar suyaklari bilan bezatilgan qasrning to'rtta burchagidagi ho'kiz suya- gidan yasalgan qoziqqa odamning bosh suyaklari osib qo'yilgan bo'lib, juda vahimali ekan.

- Sen yaxshilab ovqatlan, - debdi yalmog'iz, - qoning ko'paysin. Chiroyli, yoqimtoygina qizcha ekansan, qoning ham juda shirin bo'lsa kerak? - tamshanibdi kampir. Xunuk iljayganicha qo'shni xonaga kirib, bolalar joniga zomin bo'ladigan mash'um bigizini charxlashga tushibdi. Qizcha bo'lsa tushkunlikka tushmay avvaldan rejalashtirib qo'yganidek ishga kirishibdi. Hamma yoqni tozalab, yig'ishtiribdi. Xumdagi uzumni ezg'ilab, suvini chiqaribdi-da, ustini yopibdi. Keyin esa mazali ovqat tayyorlashga kirishibdi.

Kechga yaqin yalmog'iz kampir chiqib qarasa, uylar saranjom-sarishta, xontaxta vazifasini bajaradigan to'nka ustida yesa hidi dimoqni qitiqlaydigan taomning bug'i xali ko'tarilib ulgurmagan holda turgan ekan.

Yalmog'iz ishtaha bilan ovqatlana boshlabdi. Avval bir ko'tarishda sho'rvani bo'shatibdi. Keyin esa lagan- dagi go'shtning eng katta bo'lagini og'ziga solibdi. Go'shtni kavshagancha gap boshlabdi:

Bilasanmi, odamlar meni juda yovuz, odamxo'r deyishadi. Aslida undaymas. Ko'rib turibsan, hayvonlar go'shtini yeb tirikchilik qilishim ham mumkin. Faqat bir oyda bir martagina bolalar qonini ichaman. Shundaham ulami odamlaming o'zi menga olib kelishadi. Shu ham odamxo'rlik bo'ldimi?! Mana, mening ota-bo- bomni odamxo'r desa bo'lardi...

Kampir zavqlanganicha ajdodlarining xunxo'rliklarini gapira ketibdi. So'zining yakunida qo'shib qo'yibdi:

- Sen yaxshi qiz ekansan! Uyni yig'ishtiribsan, mazali ovqat tayyorlabsan! Ammo baribir seni qoningni ichaman!

Yalmog'iz kerishganicha o'z xonasiga kirib ketganidan keyin qizcha yana ishga tushibdi. Yig'ishtiribdi, supuribdi, ovqat tayyorlabdi. Shu tariqa kunlar o'tave-ribdi, oy oxirlaganida kampir qizga:

- Yaxshilab ovqatlan, ertaga qoningni ichaman, - debdi.

Qizcha qanchalik o'zini tetik tushishga harakat qilmasin, qo'rqib ketibdi. Biroq buni yalmog'izga sezdimabdi. Kampir uxlashga yotganida sekingina o'zi solgan uzum sharbatini tatib ko'ribdi. Musallas hali yetilmagan ekan. Qizcha shunda ham tushkunlikka tushmay yalmog'izni aldash, qutulish yo'llarini izlabdi.

Ertasiga yovuz kampir o'tkirlanaverib yaraqlab ketgan bigizini ko'targanicha chiqib kelibdi.

- Meni qonimni ichmang, - yalinibdi qizcha, - sizga mazali ovqatlar qilib beraman!

- Shirin ovqatlaringni yedim. Ovqat qilishga usta ekansan, meni toza siylading! Men qon ichishim kerak, qon, - debdi kampir qizning ko'zyoshlariga parvo qilmay.

Qizcha qancha yalinmasin yalmog'izning tosh ko'ngli yumshamabdi. Shunda qizcha boshqacha yo'l tutibdi:

- Buvijon, - ayyorlikka o'tibdi qiz, - agar qonimni ichsangiz, men halok bo'laman. Shunda siz mening go'zal raqslarimni tomosha qilolmay qolasiz!

Sen hali raqsga ham tushasanmi? - debdi yalmog'iz kampir. Bir oz o'ylangach: mog'iz esnab. Qorni to'yib, uyqu bosa boshlagani uchun o'z xonasiga yo'l olibdi.

Yalmog'iz kampir ketishi bilan qizcha vaqtini g'animat bilib musallasdan totib ko'ribdi. Musallas shira tortib, kuchga kirgan, yetilgan ekan.

Ertasiga qiz ovqat tayyorlamabdi. Qosh qorayishi bilan yalmog'iz bigizini ko'targanicha chiqib kelibdi:

- Bugun qoningni ichaman!

- Mayli, siz aytganicha bo'la qolsin. O'zi bugun ovqat ham tayyorlaganim yo'q, - debdi qiz xotirjam. - Faqat, unda men tayyorlagan totli shifobaxsh ichimlik mazasini bilolmay qolasiz-da!

- Qani o'sha ichimliging? - baqiribdi yalmog'iz kampir.

Qizcha avvaldan tayyorlab qo'ygan, kuchga kirgan, qondekqip-qizil bir kosa musallasni olib kelibdi. Yalmog'iz bir ko'tarishda kosani bo'shatibdi.

- Toza maza ekan-ku, bor, yana olib kel, - buyuribdi kampir.

- Mayli, olib kelaman. Faqat siz qayerdan olayotganimga qaramay turing, - ayyorlikka o'tibdi qiz.

Borib xumdan musallas quyib kelibdi. Uning harakatlarini ko'z uzmay kuzatib turgan kampir xumning joyini bilib olibdi. Qizcha keltirgan ikkinchi kosadagi ichimlikni ham ichgach, o'midan turib xumga boshini tiqib musallasxo'rlikni boshlabdi. Aslida qiz ham nafs balosiga yo'liqqan bu yovuzni yo'q qilish uchun aynan shunday reja tuzgan ekan. Bir zumda yalmog'izning qomi xum kabi shishib ketibdi-yu "paq" etib yorilibdi. Shu tariqa necha yillar davomida xalqning qonini ichayotgan yovuz kampir yo'q bo'libdi. Aqlli qizcha esa uyiga qaytib kelibdi. Shu-shu xalq xotijam yashay boshlabdi.